

KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKKLANTIRISHDA ZAMONAVIY FENTEZI JANRINING O'RNI

Nasriddinov Dilshod A'zamkulovich

Xorijiy til va adabiyoti kafedrası mudiri

Xalqaro Nordik universiteti

[Tel: +998947541887](tel:+998947541887)

E-mail: dilshodnasr@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda zamonaviy janrlardan biri bo'lgan fentezi janri va uning bolalar adabiyotida tutgan o'rni, shuningdek, zamonaviy fenteziga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar haqida ilmiy nazariy qarashlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *fentezi, ikkilamchi olam, sehrgarlik, g'arb adabiyoti, qahramonlik.*

Adabiy tanqidchilik — adabiyotshunoslikning muhim sohasi bo'lib, u badiiy asarlarni estetik, g'oyaviy va ijtimoiy jihatdan tahlil qiladi, adabiy jarayonga baho beradi.

Asosiy vazifalari:

1. badiiy asarning **estetik qiymatini** aniqlash;
2. muallif pozitsiyasi va **g'oyaviy yo'nalishini** ochish;
3. adabiy an'ana va **yangilik** munosabatini belgilash;
4. o'quvchi didini shakllantirish;
5. adabiy jarayonga **yo'naltiruvchi ta'sir** ko'rsatish.

Adabiy jarayonlarning muhim xususiyatlari sifatida janrlar sintezi (roman–esse, poeziya–proza uyg'unligi); postmodernistik va metamodernistik tendensiyalar; milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi; raqamli adabiyot, blog, onlayn hikoya va she'riyatning rivoji; muallif, matn va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv munosabat. Shunday ekan, Zamonaviy bolalar adabiyotida turli janrlar o'z o'rniga ega. Ammo ulardan biri – fentezi, ayniqsa, oxirgi yillarda bolalar va yoshlar orasida

nihoatda ommalashdi. Bu janrning o'ziga xos jihatlari – sehrli olamlar, g'ayritabiiy hodisalar, qahramonlik yo'li va fantastik mavjudotlar orqali bolalar nafaqat ko'ngilochar hikoyalarni o'qiydilar, balki ularning tafakkuri, tasavvuri, axloqiy qarashlari ham shakllanadi. Ushbu maqolada fentezi janrining bolalar adabiyotidagi o'rni, uning rivojlanishi va o'zbek adabiyotidagi holati haqida so'z yuritiladi.

Fentezi (ingl. fantasy – “fantaziya”) – fantastikaning janri sifatida talqin qilinib, unda mifologik va ertak personajlari ishtirok etadi. Zamonaviy G'arb adabiyotidagi fentezi asarlarida, odatda, elf, gnom, ajdaho, dev, pari, jodugar, grifon (qanotli mahluqlar), siklop (tepa ko'z), bir shoxli otlar, g'aroyib quloqli, pakana, novcha yoki boshqa bir ko'rinishli mavjudotlar uchraydi. “Kengroq ma'noda, fentezi ilmiy fantastikaga tegishli bo'lmagan, biroq, dahshat va mistika bilan bog'liq bo'lgan hamma narsani o'z ichiga oladi” [1, b.320]. Tadqiqotchi Aleksandr Gushin fikrga ko'ra, “o'z qonunlari, ehtimol, sehr-jodu, afsonaviy mavjudotlar va boshqalar mavjud bo'lgan fantaziyadan farqli o'laroq, fantastika ilmga asoslanadi. Agar fantaziyada fan qandaydir sifatda mavjud bo'lishi mumkin bo'lsa, lekin fantastik syujetlar fansiz mavjud bo'la olmaydi. Fantastikadan ilmni olib tashlasangiz, syujetni qurishga hech narsa qolmaydi” [2]. Zamonaviy fentezi janri ko'proq ingliz mualliflari, birinchi navbatda, Djon Ronald Ruel Tolkin ta'sirida shakllandi.

Fentezi adabiyoti ildizlari qadimiy ertak va afsonalarga borib taqaladi. Uning adabiy shakli XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan. C. S. Lyuisning "Narniya solnomasi"si, J. R. R. Tolkinning "Uzuklar hukmdori" trilogiyasi bu janrning asoschilari hisoblanadi. Keyinchalik J. K. Roulingning “Garri Potter” seriyasi bilan fentezi nafaqat bolalar orasida, balki kattalar orasida ham yangi bosqichga chiqdi. Bugungi kunda fentezi janri nafaqat G'arb adabiyotida, balki dunyoning boshqa hududlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda ham tobora kengayib bormoqda.

Fentezi janrining mohiyati haqida adabiyotshunoslar orasida turlicha fikrlar mavjud. Masalan, B.L.Gopman ta'kidlashicha, “fentezi fantastik adabiyotning (yoki g'aroyibotlar haqidagi adabiyotning) irratsional mazmundagi syujet faraziga asoslangan turidir. Ushbu faraz ilmiy fantastikadan farqli o'laroq, " mantiqiy”

motivasiyaga ega bo'lmagan, ratsional tushuntirilmaydigan faktlar va hodisalar mavjudligini nazarda tutadi" [1, b.1162].

Fentezi dunyosi voqealarga boy, u imkoniyatlar darajasida hayotning to'liqlik va o'z-o'zini yengish hissini beradi. Personaj "oliy kuchlar" bilan aloqaga kirishadi, ular bilan bir butunlikni hosil qiladi. Ilmiy fantastikadan farqli o'laroq, fentezi olamni obyektiv idealizm nuqtai nazaridan tasvirlaydi, fenteziga mansub asar zaminida yaratuvchi, iblis yoki boshqa bir demiurgning qudrati ko'rinib turadi. Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi Obidjonova M. fikriga ko'ra: "Fentezi va ilmiy fantastika reallikka bo'lgan munosabati tufayli umumiy xarakteristikaga ega, biroq ularning orasidagi farqlar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Ilmiy fantastika ham "mumkin bo'lmagan" prinsipdan kelib chiqadi, biroq aynan ilmiy detallarni keltirish orqali ilmiy fantastika "mumkin bo'lmaganni" "mumkin" qilishga urinishi bilan ahamiyatlidir" [2, b.14].

V.L.Goncharov fikricha: "Bunday asarlarda jonli yoki jonsiz dunyoda Yaxshilik va Yomonlikning mavjudligi hamda asosini Kalom (So'z) tashkil etgan dunyoning tuzilishi haqidagi o'rta asr tasavvurlari yotadi. Fenteziyaning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, unda alohida shaxsning roli nihoyatda yuksak bo'lib, qahramon nafaqat o'z atrofidagi voqealarning borishiga, balki dunyo taqdiriga ham ta'sir o'tkazadi" [3].

Fentezi janrining asosiy kuchi – bu tasavvurga tayanishidadir. Bolalar tabiatan xayolparast bo'lib, ular uchun sehrli olamlar, sirli qahramonlar va g'aroyib voqealar juda jozibador ko'rinadi. Fentezi asarlarida ko'pincha oddiy bola yoki yosh qahramon tasvirlanadi. U kuchli raqibga qarshi kurashadi, do'stlar orttiradi, o'zini va atrofdagi dunyoni anglaydi. Bunday voqealar orqali bola o'zining ichki dunyosida qahramonlikni, jasoratni, sadoqatni tushunib boradi. Misol uchun, "Garri Potter" kitoblarida sehrli maktab – Xogvarts, afsonaviy yovuzlik – Voldemort va unga qarshi kurashayotgan bolalar tasvirlanadi. Bu orqali bolalar o'zlarini voqealar ichida his etib, yaxshilik va yomonlik, tanlov va mas'uliyat haqida chuqurroq o'ylay boshlaydilar.

Zamonaviy fentezining asosiy xususiyatlari

Sehrli ikkilamchi olam: Fentezi asarlarida ko‘pincha boshqa dunyo yoki yashirin olam mavjud bo‘ladi (masalan, sehrli maktab, qadimiy qit’a, paralel haqiqat).

G‘ayritabiiy mavjudotlar: Ajdarlar, sehrgarlar, elflar, qorong‘u kuchlar yoki xayoliy jonivorlar.

Qahramonlik sarguzashti: Asosiy qahramon – bola yoki o‘smir bo‘lib, u ma’lum bir maqsad sari yo‘lga chiqadi va o‘zini kashf etadi.

Axloqiy g‘oya: Yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qozonadi, halollik, do‘stlik, fidoyilik kabi qadriyatlar targ‘ib qilinadi.

O‘zbek bolalar adabiyotida ham asosan xalq ertaklariga asoslangan fentezi unsurlari mavjud: devlar, pari, sehrgarlar va boshqa g‘ayritabiiy mavjudotlar xalq og‘zaki ijodida uchraydi. Ammo zamonaviy fentezi shaklida yozilgan adabiy asarlar hali juda kam. Bu janrda asar yozish o‘ziga xos yondashuv, keng tasavvur va jahon tajribasini o‘rganishni talab qiladi.

So‘nggi yillarda ayrim yosh yozuvchilar, jumladan blogger-yozuvchilar, o‘zbek an’anaviy elementlari bilan zamonaviy fentezini uyg‘unlashtirishga urinmoqdalar. Bu esa yangi avlod o‘quvchilari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz lozimki, zamonaviy fentezi janri bolalar adabiyotining eng dinamik, tasavvurga boy va tarbiyaviy ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biridir. Bolalar bu asarlar orqali nafaqat yangi olamlar bilan tanishadilar, balki o‘zlarining ichki dunyosini, axloqiy pozitsiyasini shakllantiradilar. O‘zbek adabiyotida bu yo‘nalishni rivojlantirish – bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Yozuvchilar, pedagoglar va nashrlar birgalikda harakat qilgan taqdirda, o‘zbek bolalari uchun milliy ruhdagi, ammo jahon darajasidagi fentezi asarlarini yaratish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Алексеев С.В. Фэнтези // Знание. Понимание. Умение, 2013. – № 2. – С. 310.

2. Гуцин А. В чем различие между фантастикой и фэнтези? [3413781a-fd0f-4a70-b8c8-9e94791676c1#3413781a-fd0f-4a70-b8c8-9e94791676c1](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Fentezi&variant=uz-latn). Murojaat sanasi: 04.04.2025.
3. Fentezi. <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Fentezi&variant=uz-latn> Murojaat sanasi: 20.04.2025.
4. Савицкая Т. Е. Культура электронной эры. – Екатеринбург: Издательские решения, 2018. – 186 с.
5. О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Fantastika&variant=uz-latn> Murojaat sanasi: 19.04.2025

